

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBGA QADRIYATLI YONDASHUV KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Berdaliyeva Gulasal Abdukunduzovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa

doktori, v.b.dotsent

Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Umumiy pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Telefon: +998917793882

munisxonernazarova21@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirish masalasi, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyatga munosabatni shakllantirishning o'ziga xos haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, talaba, globallashtirish jarayoni, tarbiya, jamoatchilik, insonparvarlik, qadriyat, jamiyat.

Annotation: This article will talk about the issue of forming a valuable approach to the profession in future teachers, about the peculiarity of forming an attitude to professional activity in future teachers.

Keywords: Education, Higher Education, Teacher, Student, student, globalization process, upbringing, community, humanity, value, society.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor berish asosiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Darhaqiqat, istiqlool tufayli xalqimiz o'z taqdirining egasi, tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Milliy o'z-o'zini anglashga intilish kuchaydi. Mazkur jarayonda tarbiyaviy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilishi, uning yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdagi ahamiyatining ochib

berilishi o‘ta muhimdir. Yuksak ma’naviyatli shaxsini shakllantirishda quyidagi tarbiyaviy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- boy ma’naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand bo‘lib borish;
- jahon madaniyati xazinasiga katta hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy merosi chuqurligi anglab olinganligi;
- yoshlarni o‘z o‘tmishiga, milliy, diniy an’analarga hurmat bilan qarashi, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi;
- o‘z millatining o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmatidan, obro‘-e’tiboridan faxrlanish;
- millat manfaatini himoya qilishdagi mas’uliyatni his etish va kelajakka ishonch.¹

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1994-yil 23-apreldagi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 8-iyundagi Qaroriga asosan Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi tuzildi hamda uning faoliyat yo‘nalishi quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- O‘zbekiston xalqining ma’naviy-madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhiga mos g‘oyalarni shakllantirish, tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;
- yuksak iste’dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan istiqboli sari yo‘naltirish;
- millatlararo hamjihatlik va fuqarolar totuvligini ta’minlash va boshqalar.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, xalqimizga xos bo‘lgan milliy qadriyatlar, an’analar, uning eng yaxshi xislatlari jamiyatdagi ma’naviy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

¹ B.X.Xodjayev, Z.T.Saliyeva, N.B.Matkarimova. Pedagogikaning pragmatik aspektlari [Matn]: maqolalar – Тошкент: «Ijod Nashr» nashriyoti. 2023 257-bet

Har qanday jamiyat o'zining madaniy merosini, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini odamlar ongida rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Shu bois mamlakatimiz yoshlarida yangi siyosiy dunyoqarash shakllanayotgan bir paytda, ota-bobolarimizdan meros bo'lib o'tgan bebaho go'zal madaniy durdonalardan unumli foydalanish va ular asosida yangicha mazmun kasb etadigan dunyoqarashni, ma'naviyatni shakllantirish muhim ahamiyat ega. Shuning uchun ham kelgusida pedagoglik kasbi bilan shug'ullanuvchi pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarida qadriyatlar tizimini shakllantirish o'zida muhim pedagogik muammoni aks ettiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko'nikmasini shakllantirish borasida so'z borar ekan avvalo "Kasbga qadriyatli yondashuv" tushunchasiga to'xtalib o'tsak:

Kasbga qadriyatli yondashuv — bu o'qituvchilik faoliyatiga ma'naviy va axloqiy jihatdan mas'uliyat bilan yondashish, kasbiy etika va axloq normalariga rioya qilish, o'z ishiga hurmat bilan qarash va bu orqali jamiyatga foyda keltirishga intilganlikdir. Yosh pedagoglarda bu yondashuv shakllanmasa, ular kasbiy faoliyatda barqarorlik va samaradorlikka erisholmaydilar. Shuning uchun ham ushbu ko'nikma yoshlar tarbiyasida alohida o'rin tutishi kerak.

Kasbga qadriyatli yondashuv ko'nikmasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari bizningcha quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy kasbiy motivatsiyani uyg'otish
2. Etik va axloqiy me'yorlarni shakllantirish
3. Teoretik bilim va amaliy tajriba uyg'unligi
4. Munosabat va muloqot madaniyatini rivojlantirish
5. Ijodiy yondashuv va innovatsiyalarni qo'llashga tayyorgarlik
6. Shaxsiy o'sish va kasbiy rivojlanishga intilish
7. Jamiyat va maktab muhitiga moslashish qobiliyati

Shaxsiy kasbiy motivatsiyani uyg'otish uchun yosh o'qituvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishini oshirish va o'qituvchilikka nisbatan muhabbatni uyg'otish lozim.

Buning uchun kasbning jamiyatdagi ahamiyati, o'qituvchining ijtimoiy roli haqidagi ma'ruzalar, uchrashuvlar va fikr almashinuvlari tashkil etilishi mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarda Etik va axloqiy me'yorlarni shakllantirish uchun esa o'qituvchilik kasbiga xos etika va axloqiy normalarni yosh mutaxassislarga tushuntirish, ularni hayotda amalga oshirishni odatga aylantirish zarur. Axloqli, mas'uliyatli va pokiza niyomatlar bilan ishlashga moyillik rivojlantirish kerak.

Kasbiy bilimlarni nazariy jihatdan o'rganish bilan bir qatorda, amaliy tajribalar orqali ushbu bilimlarni hayotga tatbiq etish ko'nikmasini rivojlantirish orqali teoretik bilim va amaliy tajriba uyg'unligiga erishish mumkin. Bu jarayonda bizga stajirovka, mentorlik va o'quv amaliyotlari yordamga keladi.

Munosabat va muloqot madaniyatini rivojlantirish. Darhaqiqat, o'qituvchi uchun o'quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan samarali va samimiy muloqot o'rnatish qobiliyati juda muhim. Hurmat va sabr-toqatga asoslangan munosabatlar yosh pedagogning kasbiy muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchilikni kasb qilgan har bir jamiyat a'zosi borki, zamonaviy ta'lim jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi kerak. Yosh o'qituvchilarni innovasion yondashuvlar, ijodiy fikrlashga rag'batlantirish va ularni kasbiy jihatdan rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

O'qituvchilik kasbi — bu doimiy o'rganish va o'zini takomillashtirishni talab qiladigan faoliyatdir. Yosh mutaxassislarni kasbiy seminar va treninglarda ishtirok etishga, ilmiy tadqiqotlar olib borishga, o'z bilim va ko'nikmalarini yaxshilashga ruhlantirish lozim.

Har bir maktab va jamiyat o'zining o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy sharoitlarga va talablarga mos ravishda faoliyat yuritishga tayyorlash ham muhimdir.

Xulosa

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko‘nikmasini shakllantirish — bu nafaqat kasbiy bilimlar va malaka to‘plash, balki ma‘naviy-axloqiy tarbiya va shaxsiy rivojlanishga e‘tibor berishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Ushbu jarayonda yosh pedagoglarning ichki motivatsiyasi, kasbiy etikasi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilsa, kelajakda sifatli va mas‘uliyatli o‘qituvchilar yetishtiriladi. Shu tariqa, mamlakatimiz ta‘lim tizimining barqaror rivojlanishi va kelajagi ta‘minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma‘naviy ma‘rifiy ishlarga oid ma‘ruzalar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni. – Toshkent: Adolat 2020.
3. Qodirov, R. Pedagogik yondashuvlar va ularning ta‘lim jarayonidagi ahamiyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. Karimov, A. Qadriyatlar va milliy ma‘naviyat. – Toshkent: Ma‘naviyat 2019.
5. B.X.Xodjayev, Z.T.Saliyeva, N.B.Matkarimova. Pedagogikaning pragmatik aspektlari [Matn]: maqolalar – Тошкент: «Ijod Nashr» nashriyoti. 2023 257-bet
6. “Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko‘nikmasini shakllantirish “ Ernazarova M.J. “Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал